

SINXRON TARJIMANING KELIB CHIQISHI VA UNING RIVOJLANISHI

Rojiboyev Ilhomjon,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

ilhomjonrojiboyev@gmail.com, +998999349913

Annotatsiya. Ushbu maqolada sinxron tarjimaning shakllanish jarayoni va tarixiy rivojlanishi yoritilgan. Tadqiqotda sinxron tarjimaning madaniyatlararo muloqotni rivojlantirishdagi roli, tarjima jarayonining ijodiy xususiyatlari va tarjimon shaxsining muhim funksiyalari tahlil qilinadi. Sinxron tarjimaning birinchi jahon urushi davrida paydo bo'lgani, Komintern kongresslari va Nyurnberg hamda Tokio sud jarayonlarida keng qo'llanilishi tarixiy dalillar asosida ko'rsatib beriladi. Shuningdek, XX asrning 60–70-yillaridagi ilmiy tadqiqotlar, rus tarjimashunosligida sinxron tarjima masalalarining shakllanishi va o'zbek tarjimashunosligida bu yo'nalishning yetarlicha o'rganilmaganligi tahlil qilinadi. Mazkur maqola sinxron tarjimaning texnik imkoniyatlari, metodlari va kasbiy tayyorlash tizimi haqidagi ma'lumotlar bilan boyitilib, bugungi kunda ushbu sohaning ahamiyati ortib borayotgani ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: sinxron tarjima, konferensiya tarjimasi, tarjimashunoslik, Komintern, Nyurnberg sud jarayoni, tarjimon tayyorlash, og'zaki tarjima, madaniyatlararo muloqot, tarjima tarixi, texnik vositalar, yozma va og'zaki tarjima, tarjima metodlari.

Annotation. This article explores the emergence and historical development of simultaneous interpreting. The study analyzes the role of simultaneous interpretation in fostering intercultural communication, its creative nature, and the essential functions of the interpreter. Historical evidence demonstrates that simultaneous interpreting originated during World War I and was later widely used at the Comintern

Congresses as well as during the Nuremberg and Tokyo Trials. The article also examines scientific research conducted in the 1960s–1970s, the evolution of simultaneous interpreting in Russian translation studies, and the insufficient level of research on this field in Uzbek translation studies. Additionally, it highlights the technological tools, interpreting methods, and professional training system, emphasizing the growing importance of simultaneous interpretation in the modern world.

Keywords: *simultaneous interpreting, conference interpreting, translation studies, Comintern, Nuremberg Trials, interpreter training, oral translation, intercultural communication, history of translation, technical equipment, interpreting methods.*

Darhaqiqat, tarjima madaniyatlar atrofidagi boshqa jamiyatlarga hech qanday ruxsatsiz o‘tadigan ko‘prik sifatida ko‘rilgan bo‘lib va hozir ham shundaydir. U turli madaniyatlar o‘rtasida muloqotni yo‘lga qo‘yish, turli sivilizatsiya va madaniyatlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartirish, yo‘qotish va umumiy global fikrni yaratish uchun shart-sharoit yaratishda katta rol o‘ynaydi. Tarjima masalasi ham bizni muallif va tarjimon o‘rtasidagi munosabatlar darajasiga, tarjimani ijodiy jarayon sifatida gapirishga olib keladi. Tarjima elementlari va usullarini o‘rganib chiqqach, mualliflik va tarjima o‘rtasida juda katta farq yo‘qligini ko‘ramiz. Har ikkisi ham ijodiy ish, chunki tarjimon odatda tarjima qilingan matnni birdaniga yaratmaydi, aksincha, so‘z va talaffuzni atama sifatida, uslub va ma‘noni xos bir shaklda tanlab olib zukkolik bilan qo‘llashi kerak.

Sinxron tarjima Birinchi jahon urushi paytida vujudga kelgan. O‘sha davrda fransuz tili xalqaro til hisoblangan va muhim xalqaro uchrashuvlar Fransiyada bo‘lib o‘tgan. Birinchi jahon urushi davrida tarjimonlar ko‘magiga muhtoj bo‘lgan yuqori martabali Amerika va britaniyalik muzokara olib boruvchi shaxslar fransuz tilini bilmasdilar. Ayniqsa, Nuremberg va Tokio sud jarayonlaridan so‘ng konferensiya

tarjimasi keng qamrovli bo‘lib ketdi. Hozirda bu keng tarzda faqatgina konferensiya emas, balki radio va televideniya dasturlarida ham qo‘llanilmoqda.[1, 34-35]

Ma’lumki, ilk sinxron tarjima tajribasi 1928-yilda VI Komintern Kongresida bo‘lib o‘tgan. O‘sha davrda telefonlar yo‘q edi. So‘zlovchining nutqi to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjimonning quloqlariga yetib borar edi. Ilk kabina va naushniklar 1933-yil Kominternning ijro etuvchi o‘n uchinchi yalpi majlisida paydo bo‘lgan. Rossiyaning Moskva shahrida bo‘lgan bir guruh sinxron tarjimonlar Nuremberg sud jarayonlariga xizmat ko‘rsatuvchi konferensiya tarjimonlarining guruhini tuzdi va boshqalari Yaponiya urush jinoyatchilari ustidan bo‘lgan Tokio sud jarayonlarida qatnashdi. [3, 183] Ana shu dastlabki konferensiyalarda ishlagan tarjimonlar ilk sinxron tarjimonlar sifatida ish bajargan. Ular Chet tillar harbiy institutining (1942-yil Chet Tillari Moskva pedagogika Institutining Harbiy Departamentiga asoslangan holda tashkil qilingan) yosh bitiruvchilari edi. Ular u yerda harbiy yozma va og‘zaki tarjimonlar sifatida mashq qildirilgan. Tarjimonlarning mashq jarayonlarida Moskva universiteti va Falsafa instituti, shuningdek, Tashqi ishlar vazirligi a‘zolari va chet davlatlar bilan madaniy aloqalar jamiyati xodimlari qatnashganlar. [4, 90]

1952-yil Moskvada bo‘lib o‘tgan xalqaro iqtisodiy konferensiya majlisida 50 ta sinxron tarjimon xizmat ko‘rsatgan. Konferensiya oltita – rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan va xitoy tillarida olib borilgan. 1962-yildan beri Moskvadagi Birlashgan Millatlar tillari bo‘yicha tayyorlov kursi, Chet tillari Moskva tilshunoslik universiteti qoshidagi har yili 5 tadan 7 tagacha sinxron, konferensiya tarjimonlari tayyorlaydigan maktab, Rossiya Birlashgan Millatlar kotibiyati kabinasi, Nyu York va Venaga tarjimonlar tayyorlab beradi. 10 yildan so‘ng, 1971-yilda aynan shu kollejdagi yuqori yozma va og‘zaki tarjimonlar maktabining bakalavrlari sinxron, konferensiya tarjimonlarini tayyorlaydigan 2 yillik kursini taqdim etdi. Shunday qilib, sinxron tarjima darslari ko‘p kanalli magnetofonning yaratilishidan so‘ng boshlangan va 60-yillar oxirlari va 70-yillar boshlarida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borildi (Xenri Barek (AQSH), D. Gerver (Angliya), I.A. Zimnaya (Rossiya) va boshqalar). [7, 54]

1960-1970-yillarning boshlarida ba'zi ruhshunoslar va tilshunoslar sinxron tarjima aspektlari va tilshunoslikning bir qancha tajribaviy tarjima darslariga qiziqib qolishdi va asosiy tilning har xil usullari, qabul qilish tezligi, xabar olingan vaqt o'rtasidagi va o'zga tilga o'girilish vaqti o'rtasidagi vaqt, shovqin, nutq yetib kelishdagi to'xtashlar kabi masalalarni o'rganishgan. [6, 203]

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, birinchi talqin qilishga urinishlar Andre Kaminker tomonidan 1934-yilda Gitlarning fransuz radiosidagi nutqini tarjima qilganida bo'lgan. Shundan keyin Ikkinchi jahon urushidan so'ng 1945-1946-yillari Germaniyada bo'lgan Nyurnberg Xalqaro harbiy sudida fashistlar jinoyatini sudlash jarayonida ilk marotaba sinxron tarjimadan foydalanilgan. Sinxron tarjima taklifi dastlab tarjima faoliyati va tarjimashunoslik bilan shug'ullanuvchilarning ko'pchiligini sarosimaga soldi. Rus tarjimashunosligida sinxron tarjima masalalari XX asrning 70-80-yillaridan keyin jiddiy tarzda ko'rib chiqishga kirishilgan. Bunga A.D. Shveyser, G.V. Chernov, V.M. Ilyuxin kabi tadqiqotchilarning ishlari misol bo'la oladi. [5, 89]

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tarjimashunosligida sinxron tarjima masalalari yaxshi ishlanmagan. Faqat tarjimashunos G'. Salomovning "Tarjima nazariyasiga kirish" nomli o'quv qo'llanmasida "Imo-ishoralar "tili"ni, ayniqsa, sinxron tarjima va kinofilmlar o'girmasi bilan shug'ullanuvchi tarjimon-mutaxassislar aniq farqlamoqlari darkor"ligi ta'kidlab o'tilganligi bizga ma'lum. Hozirgi paytda xorijiy tillarni o'rganish keng tarqalgan, ko'pchilik mutaxassislar ikki yoki undan ortiq tilni bilish darajasiga yetgan bo'lsa-da, sinxron tarjimaga bo'lgan ehtiyoj baribir ortib bormoqda. Hozirgi kunga kelib tarjimaning ko'plab turlari qo'llanilib kelinmoqda, jumladan, sinxron tarjima ham mavjud bo'lib, bugungi kunda ko'plab muassasalarda sinxron tarjimaning ahamiyati odamlar orasida ortganligini sezib turibmiz. [2, 67]

Boshqa tarjimalar kabi sinxron tarjimaning ham o'ziga xos turlari bo'lib, bu tarjimaning ham qonun-qoidalari va shart-sharoit hamda ijro usullari mavjuddir. Aslida sinxron tarjimaning ma'nosi vazifa va vositalariga ko'ra bir nechta ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Biz ushbu qoidalarni va usullarini barchasini muhokama qilamiz va imkon qadar yoritib beramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Швейсер А. Д. Теория перевода: Статус, проблемы, аспекты. – Москва: Наука, 1988.
2. Solomonov G. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
3. Chernov G. V. Semantic Aspects of Simultaneous Interpreting. – Moscow: Progress Publishers, 1979.
4. Ильяхин В. М. Основы синхронного перевода. – Москва: Высшая школа, 1985.
5. Gerver D. “Simultaneous Interpreting and Human Information Processing” // Language and Speech. – London, 1976. – Vol. 19. – P. 195.
6. Henning W. Simultaneous Interpretation: Its Origins and Development. – New York: John Benjamins, 1990.
7. Зимняя И. А. Психоллингвистические аспекты синхронного перевода. – Москва: МГУ, 1981.